

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Abduraxmonova K. R.
«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası o'qituvchisi
O'zbekiston Milliy universiteti
abduraxmonova_k@nuu.uz

TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO'LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot antropologiyasi doirasida kasallikni aniqlash, tashxis qo'yish va davolashga bemorlarning qarashlarini tahlil qilishning metodologik asoslari yoritilgan. Artur Kleinman tomonidan ishlab chiqilgan "tushuntirish modeli" (explanatory model) konsepsiyasi asosiy metodologik vosita sifatida ishlatiladi va bu model bemorning kasallikni tushunish, simptomlarini o'rganish va davolashni shakllantirishdagi subyektiv tajribasini tizimli aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, maqolada ruqya davolash orqali bemorlarning diniy, madaniy va ijtimoiy qarashlari o'rganilib, sog'liqni saqlash amaliyotida madaniy kompetensiyaning muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kasallik, bemor fikri, ijtimoiy-madaniy omillar, Artur Kleinman, Interpretiv metod, tushuntirish modeli.

KIRISH

Globalashuv davrida jamiyat salomatligini yanada oshirishda tibbiyot antropologiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Sog'liq va kasallikni faqat biologik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida tushunishga bo'lgan talab ushbu yo'nalishning dolzarbligini oshirmoqda (Singer & Baer, 2012). Turli hudud va jamoalarda salomatlik bilan bog'liq qarashlar, davolash amaliyotlari hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish shakllari sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Tibbiyot antropologiyasida keltirilgan yondashuvlar asosida madaniy tafovutlarni aniqlash, jamoaviy davolash tajribalarini ilmiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi (Foster & Anderson, 1978).

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Avvalo kasallikka ta'rif beradigan bo'lsak, "Kasallik" bu - virus, bakteriya, parazit yoki boshqa zararkunandalar oqibatida vujudga keluvchi, sog'liqqa xavf soluvchi tahdid hisoblanadi. Shu sababdan ham tibbiyot antropologlari turli etnik guruhlar va madaniyatlardagi turli xil kasalliklarni o'rganib, salomatlikni yaxshilovchi hamda kasallikni davolovchi yo'nalishlarni ishlab chiqadilar. Agar tarixan shakllanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tibbiyot antropologiyasi 1950 va 1960-yillarning boshlarida AQShda fan sifatida shakllana boshlagan va nazariyalar yaratilgan (Kleinman, 1980). Xorij adabiyotlarida "Tibbiyot antropologiyasi"ga quyidagicha ta'rif beriladi: inson salomatligi va kasalliklari, sog'liqni saqlash tizimlari va biologik madaniy moslashuvni o'rganuvchi antropologik soha

hisoblanadi (Ackerknecht, 1953). Shuningdek, Tibbiyot antropologiyasi sogʻliq, kasallik va davolash amaliyotlarini madaniy, ijtimoiy, biologik va lingvistik nuqtai nazardan oʻrganadigan fan boʻlib, uning ahamiyati global sogʻliqni saqlash muammolarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi (Singer & Baer, 2012).

XX asrning boshlarida bu turdagi birinchi tadqiqotlar AQSh va Buyuk Britaniyada yuzaga keldi. Ikkinchi jahon urushi davrida amerikalik antropologlar uzoq Sharq va Tinch okeani mintaqalarida dala ishlariga jalb qilinib, u yerda ular harbiy xizmatchilarning sogʻligʻini saqlash va ularning ovqatlanish tartibini oʻrgandi. Mazkur faoliyat amaliy antropologiya rivojlanish boshlanishining ilk bosqichi edi. 1950–1960-yillardan boshlab Gʻarb mamlakatlarida tibbiyot va sanitariya xizmatlari antropologik tadqiqotlar uchun muhim obyektga aylana boshladi. Bu davrda ingliz antropologlari sogʻliqni saqlash tizimlari, kasallik tushunchalari hamda jamiyatning salomatlik bilan bogʻliq xulq-atvorlarini oʻrganishga katta eʼtibor qaratdilar. Ingliz antropologlari J. Foster va B. Andersonning “Tibbiyot antropologiyasi” nomli asari ushbu fan sohasining metodologik shakllanishida alohida oʻrin tutdi. Kitobda sogʻliq va kasallik masalalarining tarixiy, ijtimoiy va madaniy determinantlari koʻrib chiqilib, ularning insoniyat taraqqiyotiga taʼsiri yoritilgan (Foster & Anderson, 1978). Jumladan, D. V. Mixel, E. H. Akernecht, V.R. Rivers, R. Z. Simonyan va boshqa olimlarning tadqiqotlari jamiyatning sogʻliq bilan bogʻliq muammolarini, kasallik nazariyalarining shakllanishini hamda sogʻliqni muhofaza qilish tizimlarining evolyutsiyasini izohlashga qaratilgan (Mikhel, 2015) & (Rivers, 1924). Amerikalik olim Klayton J. Robert esa salomatlikni saqlash amaliyotida madaniy omillarni, davolash texnologiyalari, terapevtik jarayonlar va nizolarni hal qilishdagi ijtimoiy-madaniy jihatlarni oʻrgangan. Shu bilan bir qatorda, Artur Kleinman sogʻliq va kasallikning madaniy kontekstlarini, psixoterapiya va davolash jarayonlarida madaniy tafovutlarning ahamiyatini tadqiq qilgan (Kleinman, 1980).

Antropologiyada Tibbiyot tizimlari ikkita komponent: “kasallik nazariyalari tizimi” hamda “sogʻliqni saqlash tizimi”ga boʻlib oʻrganiladi. Antropologlar Jorj Foster va Barbara Andersonlar yaratgan “kasallik-nazariya tizimlari”da kasallikni aniqlash, sinflarga ajratish, kasallikni tushuntirib oʻrganadi. J. Foster barcha tizimlarni shaxs omili va tabiiy omilga ajratdi. Shaxs omili: ruhlar, sehrgarlar, xudolar taʼsirida roʻy bersa, tabiiy omil: tabiatning shaxs ishtirokisiz kuchlarning rolini taʼkidlash mumkin. Bunday tasniflash antropolog Alan Yangning yondashuviga oʻxshab ketadi. Olimlarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, inson salomatligining 51,6 %i sogʻlom turmush tarziga, 20,5 %i irsiyatga, 19,3 %i ekologik muhitga, 8,6 %i sogʻliqni saqlash tizimiga bevosita bogʻliq. Inson salomatligi turmush tarzi, toʻgʻri ovqatlanish, tashqi muhit (kimlar bilan muomala qilishi), qulay ish muhitiga bogʻliq. Demak, tibbiyot antropologiyasi asosiy eʼtiborni jamiyatda kasalliklarning shakllari va tarqalishini keltirib chiqaradigan ijtimoiy munosabatlarga qaratadi. Mazkur yondashuv kasalliklarning kelib chiqishiga emas, balki ijtimoiy tizimlarga, ijtimoiy maʼnoga, oqibatlariga qaratish kerakligini izohlab keladi. Bu ijtimoiy omillar kasallikka tashxis qoʻyishga taʼsir qilishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, antropolog Artur Kleinman tibbiyot antropologiyasida Interpretiv ya'ni talqin qiluvchi yondashuvni keng joriy qildi. Yondashuvda sog'liq va kasallik fenomenlarini faqat biologik yoki tibbiy ko'rsatkichlar asosida emas, balki ular bilan bog'liq madaniy, ijtimoiy tajribalar kontekstida tushuntirishga qaratilgan metodologik yondashuv hisoblanadi. Ushbu qarash Klifford Girtz tomonidan ilgari surilgan "chuqur tavsif" g'oyasiga tayaniladi. Bu yondashuvda tadqiqotchi bemor yoki jamoa salomatlik haqidagi qarashlarini, ularga yuklaydigan ramziy va ma'naviy ma'nolarini tahlil qiladi. Har bir bemor kasallik sabablarini, davolash usullarini va sog'ayish jarayonini o'z dunyoqarashi va madaniy bilimlari asosida tushuntiradi. Shu asosida interpretiv yondashuv tibbiy jarayonlarni nafaqat shifokor, balki bemorning ham tajribasi orqali tahlil qilish imkonini beradi. Interpretiv yondashuv tibbiy simptomlardan ko'ra madaniy tahlil qiladi. Madaniy kontekstdagi sog'liqni anglashning yorqin na'munalaridan biri Lotin Amerikada uchraydigan "susto" kasalligidir. Bu tushuncha inson ruhining tanadan chiqib ketishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy va jismoniy alomatlarni ifodalaydi. Bunday holatlarda, ayniqsa ayollar tomonidan o'tkaziladigan maxsus shifo marosimlari bemorning ruhini tiklash va jamiyat bilan uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

A. Kleinman ishlab chiqqan yana bir "tushuntirish modeli" (explanatory model) (Kleinman, 1988) bemorning o'zi kasallikni qanday tushunishi, kasallikni qanday nomlashi, uning sabablarini qanday izohlashi, kasallikning davomiyligi va oqibatlari haqidagi taxminlari, davolanishga bo'lgan umid va intilishlarini tizimli ravishda aniqlashga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu konsepsiya tibbiyot antropologiyasi va tibbiy-psixologik amaliyotning kesishmasida joylashib, salomatlikni faqat biologik jarayonlar doirasida emas, balki shaxsning madaniy, ijtimoiy va psixologik kontekstdagi ma'nolar tizimi sifatida ham ko'rishni talab qiladi. Asosiy g'oya shundan iboratki, bemorning kasallik haqidagi tushunchalari nafaqat individual idrok emas, balki oilaviy, diniy, ijtimoiy munosabatlar va avval olingan tajribalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. "Nima sababdan kasal bo'ldim?", "Kasallik nimadan boshlangan?", "Qaysi davolash usuli menga yordam beradi?" kabi savollarga bemorning o'zi bergan javobi tushuntirish (explanatory) (Kleinman, 1978) yondashuvi hisoblanadi.

Mazkur yondashuvni tadqiqotlarimiz bilan bog'laydigan bo'lsak, Farg'ona, Toshkent shaharlarida tabobatning "Roqiy davolash" yoki "ruqya davolash" usuli ko'p uchramoqda. Bu usul an'anaviy ruhiy-ma'naviy shifo usuli hisoblanadi. Qur'on oyatlari, duolar va zikrlarni o'qish orqali ruhiy, psixologik holatini tiklash demakdir. O'zbek xalqi orasida ko'z tegishi, sehr, vasvasa, tashvish, ruhiy tushkunlik kabi holatlarda roqiylarga (ruqya amaliyotini bajaruvchi shaxs) murojaat qilinadi. Arthur Kleinman tomonidan ishlab chiqilgan "tushuntirish modeli" (explanatory model)da kasallikni biologik jarayon emas, balki madaniy va ijtimoiy ma'nolar tizimi vositasida shakllanadigan hodisa sifatida o'rganadi. Shundan kelib chiqib, Artur Kleinmanning nazariyasi asosida kasallikning tushuntirish holati quyidagicha: bemor o'z ruhiy holatini "ko'z tegdi", "sehr bor", "jin tegdi" kabi o'ylaydi va ishonadi. Jamiyat bu muammoni ruhiy, diniy sabablar bilan bog'laydi. Jamiyat orasida bu davolash usuli ijtimoiy jihatdan maqbul

ko‘riladi. Roqiy (ruqya) amaliyoti ham ana shu madaniy tushuntirish modelining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur kontekstda roqiy (ruqya, ruqyah) davolash ruhiy jarayonlar, ko‘z tegish yoki sehr-jodu kabi hodisalarni bartaraf etishning ijtimoiy jihatdan tan olingan shakli sifatida qaraladi. Bu holat Kleinman tasnifidagi jamiyatning kasallikni tushunishi (sickness) va unga nisbatan umumiy madaniy munosabatini ifodalovchi darajaga mos keladi. Ruqya amaliyotiga asos bo‘luvchi diniy-ruhiy izohlar bemor, uning oilasi va mahalliy jamiyat tomonidan qabul qilingan tushuntirish modelini (explanatory model) shakllantiradi. Ushbu modelda kasallikning kelib chiqishi g‘ayri tabiiy kuchlar, ruhiy buzilishlar yoki ilohiy sinov bilan bog‘lanadi. Antropologik kuzatuvlarga ko‘ra, ruqya Qur‘on oyatlarini tilovat qilish orqali shifo manbai deb hisoblanadi. Amaliyot bemor uchun ruhiy himoya va taskin berish vazifasini bajaradi. Bemorning peshona, bosh qismiga qo‘l qo‘yish bilan o‘qiladigan duolar “energiya uzatish” sifatida qaraladi. Shuningdek, suv, qora urug‘ (Nigella sativa (habba sawda) xalq tabobatida ishlatiladigan o‘simlik urug‘i, hadislarida har qanday kasallik uchun shifo bo‘ladi deyiladi) (AlRawi et al., 2017), zaytun moyi kabi an‘anaviy vositalardan ham foydalaniladi. Ruqya davolashga murojaat qilgan bemorda diniy oyatlar tinchlantirish, xavotirni kamaytirish, ichki barqarorlikning oshishiga yordam beradi va psixosomatik simptomlarni yengillashtirish holati kuzatiladi. Agar tibbiy tekshiruvlarda aniq tashxis topilmaganda yoki tibbiy yordam yetarli samara bermaganda bemor ruqya vositasida davo izlaydi. Mazkur jarayon A. Kleinmanning bemorning kasallik haqidagi shaxsiy hikoyasi “illness narrative” bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ruqya fizik yoki organik kasalliklarni to‘liq davolamaydi, balki qo‘shimcha terapiya (ruhiy yordam) sifatida qaraladi. Shuning uchun Qur‘on oyatlari, duolar va ruqya muolajalari bemor uchun mantiqan asosli va ma‘naviy jihatdan maqbul davolash shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ruqyani hozirgi kunda hijoma (maxsus uskunalar yordamida vakuum orqali qon oldirish) bilan birgalikda integratsiya qilgan holda qo‘llanilishi ham Farg‘ona, Toshkent shahrida uchramoqda. Hijoma olishdan avval bemor organizmida mavjud kasalliklarni o‘rganib joriy qilinishi ta‘lab qilinadi. Shu sababdan ham ruqya ham hijomani birgalikda qo‘llash salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin.

Kleinmanning yondashuvi bunday tushuntirish modellarining tibbiy amaliyotga, davolanish jarayoniga va bemor - shifokor munosabatlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. “Tushuntirish modeli”ni tadqiq qilish metodologik jihatdan etnografik yondashuvlarga asoslanadi. Bu jarayonda intervyu, so‘rovnoma, kuzatuv va fokus-guruhlar kabi usullar bemorlarning harakatida yashiringan ma‘nolarni ochishga xizmat qiladi. Olingan ma‘lumotlar mavzuli yoki chegaraviy tahlil yordamida nazariy umumlantiriladi. Tadqiqotning ishonchliligi turli manbalar bilan solishtirish, refleksivlikni saqlash hamda natijalarni ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin qilish orqali ta‘minlanadi. Shu bilan birga, bemorlarning madaniy qarashlarini hurmat qilish, ma‘lumot almashishda qulaylik yaratish va noqulayliklardan saqlanish tadqiqot etikasining muhim shartidir. Ushbu yondashuv asosida jamiyat fikri o‘rganilib, inson avvalo o‘zida kasallik alomatlarini his qilganda oilaviy shifoxonalarga murojaat qilishi aniqlandi. Xalq orasida ruqya bilan davolash, tabobat bilan davolashga tibbiy davolash natija bermagan holatda

murojaat qilinadi. Fargʻona shahrida 25-35 yosh oraligʻidagi ayollar (uy bekalari, oʻqituvchilar, hamshiralalar) orasida soʻrov oʻtkazildi (shahardagi 70 ta mahallada 301 ming nafar aholi istiqomat qiladi). Soʻrov natijalariga koʻra, respondentlarning 53 foizi kasallik alomatlari kuzatilganda avvalo oilaviy poliklinikalarga murojaat qilishini bildirgan (Dala youvlari, 2023). Buning asosiy sabablari sifatida bepul tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati va biriktirilgan oilaviy shifokorning mavjudligi koʻrsatib oʻtildi. Shu bilan birga, 35 foiz respondentlar xususiy poliklinikalarga murojaat qilishini, 10 foiz uy sharoitida davolanishni afzal koʻrishini, 2 foiz esa tabiblarga murojaat qilishini bildirgan. Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, aholining aksariyati zamonaviy tibbiy muassasalarga murojaat qilsada, iqtisodiy imkoniyatlar, xizmatlarning sifatiga boʻlgan ishonch va shaxsiy tajribalar tanlovda muhim rol oʻynaydi. Tabiblarga murojaat qilish holatining nihoyatda pastligi (2 foiz) esa, bir tomondan, soxta tabiblarning koʻpayishi, ikkinchi tomondan esa, aholining ularga boʻlgan ishonchining sezilarli pasayishi bilan izohlanadi (Abduraxmonova, 2024). Umuman olganda, natijalar aholining tibbiy xizmatlardan foydalanishida madaniy qarashlar bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi. Oilaviy poliklinikalar aholining eng ishonchli va asosiy tibbiy tayanch manbai sifatida qaralmoqda, biroq murakkab tashxis talab qiluvchi hollarda bemorlar koʻp hollarda xususiy yoki koʻp tarmoqli shifoxonalarga yoʻnaltiriladi.

XULOSA

Tibbiyot antropologiyasi sogʻliq va kasallikni faqat biologik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan chambarchas bogʻliq hodisa sifatida oʻrganishga imkon beradi. “Tushuntirish modeli” yondashuvi orqali bemorlarning kasallikka oid qarashlari, tashxis qoʻyish, davolanishga munosabatlari hamda sogʻliq haqidagi madaniy tasavvurlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanishidagi tanlovi nafaqat kasallik alomatlariga, balki iqtisodiy imkoniyatlar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribalarga ham bogʻliqdir. Shu jihatdan, tibbiyot antropologiyasi yondashuvlari global sogʻliq siyosati va mahalliy sogʻliqni saqlash amaliyotlarini uygʻunlashtirishda muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ackerknecht, E.H. (1953). *Medicine and Ethnology* (pp. 23-25). Verlag nicht ermittelbar.
2. Abduraxmonova, K. R. (2024). Tibbiyot antropologiyasi oʻrganilish tarixshunosligi. *TARIXIY TADQIQOTLAR*, 2(2), 20-33.
3. AlRawi, S. N., Khidir, A., Elnashar, M. S., Abdelrahim, H. A., Killawi, A. K., Hammoud, M. M., & Feters, M. D. (2017). Traditional Arabic & Islamic medicine: validation and empirical assessment of a conceptual model in Qatar. *BMC Complementary and Alternative Medicine*, 17(1), 157. <https://doi.org/10.1186/s12906-017-1639->
4. Foster, G., & Anderson, B. (1978). *Medical anthropology*. (pp. 62-63). John Wiley & Sons.

3. Geertz, C. (1973). The Interpretation of Cultures. (p. 3). Basic Books.
4. Kleinman, A. (1978). Concepts and a model for the comparison of medical systems as cultural systems. Social Science & Medicine, 12(2), 85–93. [https://doi.org/10.1016/0160-7987\(78\)90014-5](https://doi.org/10.1016/0160-7987(78)90014-5)
5. Kleinman, A. (1980). Patients and Healers in the Context of Culture. (p. 108). University of California Press.
6. Kleinman, A. (1988). The Illness Narratives: Suffering, Healing, and the Human Condition. (p. 31). Basic Books.
7. Михель Д.В. (2015). Медицинская антропология: исследуя опыт болезни и системы врачевания: монография. (р. 7). Саратов.
8. Rivers, W.H.R. (1924). Medicine, Magic and Religion. (pp. 36-40). Routledge.
9. Singer, M., & Baer, H. (2012). Introducing Medical Anthropology. (pp. 45-46). Rowman & Littlefield.
10. culturallyconnected.ca+1
11. Dala yozuvlari. (2023). Farg‘ona shahri.

Абдурахманова К. Р.

Преподаватель кафедры «Археология и этнология»

Национальный университет Узбекистана

abduraxmonova_k@nuu.uz

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА ВЗГЛЯДОВ ПАЦИЕНТОВ НА ПРОТЕКАНИЕ ИХ БОЛЕЗНЕЙ В РАМКАХ МЕДИЦИНСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются методологические основы анализа взглядов пациентов на выявление, определение диагноза и лечение в рамках исследования в контексте медицинской антропологии. Концепция “объяснительной модели” (explanatory model), разработанная Артуром Кляйнманом, используется в качестве основного методологического инструмента, и данная модель позволяет систематически определять субъективный опыт пациента в понимании болезни, изучении симптомов и формулировании лечения. В статье также исследуются религиозные, культурные и социальные взгляды пациентов на лечение рукией (целительство на основе эзотерического внушения), подчеркивая важность культурной компетентности в практике здравоохранения.

Ключевые слова: болезнь, мышление пациента, социокультурные факторы, Артур Кляйнман, интерпретативный метод, объяснительная модель.

Abdurakhmonova K. R.

Lecturer at the department of «Archeology and ethnology»

National University of Uzbekistan

abduraxmonova_k@nuu.uz

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE ANALYSIS OF PATIENTS' VIEWS ON THE PROCESS OF LASTING OF THEIR DISEASES IN THE FRAMEWORK OF MEDICAL ANTHROPOLOGY

ABSTRACT

This article analyzes the methodological foundations of the analysis of patients' views to disease detection, determination of diagnosis and treatment process within the framework of medical anthropology. The concept of the “Explanatory model”, developed by Arthur Kleinman, is used as the main methodology, and this model allows us to systematically determine the patient's subjective experience in the way of understanding the disease, studying symptoms, and formulating treatment. The article also explores the religious, cultural, and social views of patients on surgery treatment, emphasizing the importance of cultural competence in healthcare practice.

Keywords: disease, patient's thinking, sociocultural factors, Arthur Kleinman, interpretative method, explanatory model.